

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

UTEBAYEV SALAMAT MAKSETBAY ULI

**KONTRABANDA UCHUN JAVOBGARLIK: JINOYAT-HUQUQIY VA
KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
юридическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
legal sciences**

Utebayev Salamat Maksetbay uli

Kontrabanda uchun javobgarlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar.....3

Утебаев Саламат Максетбай улы

Ответственность за контрабанду: уголовно-правовые и криминологические
аспекты.....23

Utebayev Salamat Maksetbay uli

Liability for smuggling: criminal-legal and criminological aspects.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

UTEBAYEV SALAMAT MAKSETBAY ULI

**KONTRABANDA UCHUN JAVOBGARLIK: JINOYAT-HUQUQIY VA
KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu890 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/avtoreferat/>) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.


Ilmiy rahbar:	Najimov Miratdiyev Shamshetdinovich yuridik fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	O‘razaliyev Murodbek Qorayevich yuridik fanlar doktori, professor Mirshaeva Kamola Olimovna yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 27-noyabr soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871-233-66-36; faks: +998971-233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1444-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871-233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 12-noyabr 63-raqamli reestr bayonnomasi).



 **A.A. Otajonov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

 **I.B. Djurayev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc),
professor

 **D.B. Bazarova**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global tahdid manbalari ko‘payib borayotgan, qarama-qarshilik va keskinliklar, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va boshqa xavf-xatar va tahdidlar yuz berayotgan davrda “kontrabanda” yo‘li bilan jinoyat sodir etish hollari ko‘payib bormoqda. Jahon miqyosida noqonuniy qurol savdosi yillik taxminan 1 milliard dollarni tashkil etsa, jahon noqonuniy giyohvand moddalar bozorining qiymati 426 milliard dollardan 652 milliard dollargacha baholanadi¹. 2023-yilda jahonda kokain ishlab chiqarish hajmi 3 708 tonnaga yetib, 2022-yilga nisbatan 34% oshdi. Yangi kontrabanda usullari paydo bo‘lmoqda. Giyohvand moddalar kontrabandachilari “narko-submarinalar” (yarim suv osti kemalari) orqali katta hajmdagi yuklarni okeanlar orqali o‘tkazmoqda². So‘nggi yillarda kontrabandaga qarshi chora-tadbirlar kuchaytirilayotgan bo‘lsa-da, ularning amaliy natijalari kutilgan darajada samara bermayapti. Kontrabanda jinoyatlari tobora murakkablashib, zamonaviy texnologiyalar yordamida yangi usullarda sodir etilmoqda. Shu sababli kontrabandaga qarshi kurashish sohasida xalqaro tashkilotlar faoliyatini kuchaytirish hamda mazkur yo‘nalishda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, bojxona nazoratini yanada mustahkamlash va bu jinoyatning oldini olish bo‘yicha samarali choralarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Jahonda kontrabanda jinoyati yuqori xavf darajasiga ega bo‘lgan jinoyat turlaridan biriga aylangan bo‘lib, unga qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy va kriminologik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda kontrabanda jinoyatlarining ijtimoiy barqarorlik va kriminogen vaziyatga ta‘sirini kamaytirish, ularning global iqtisodiyotga zararini bartaraf etish hamda qarshi kurashishda yangi siyosiy va amaliy choralarni qo‘llash borasida muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan, ilmiy doiralarda kontrabanda jinoyatlari uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish, jinoyat predmetining doirasini kengaytirish, shuningdek, xalqaro ilg‘or tajribalar asosida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda bojxona sohasida qonunchilikni takomillashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda rasmiylashtirish jarayonlarini raqamlashtirish va shaffofligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar asosiy vazifa qilib belgilangan. Taraqqiyot strategiyasida esa “jamoat xavfsizligini ta‘minlash hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘layotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish” vazifasi alohida qayd etilgan. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, kontrabanda jinoyatlari murakkab shakllarda davom etmoqda, ularning oldini olishda mavjud mexanizmlar yetarlicha samarali natija bermayotgani ko‘zga tashlanmoqda. Ana shunday sharoitda kontrabandaga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy jihatlarini chuqur tadqiq qilish, jinoyat qonunchiligini qo‘llash amaliyotini takomillashtirish hamda ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha yangi yondashuvlarni ishlab

¹ Global cocaine boom keeps setting new records, UN report says. — Matn: elektron // Reuters: [сайт]. — URL: <https://www.reuters.com/world/americas/global-cocaine-boom-keeps-setting-new-records-un-report-says>.

² Cocaine Surge Fuels Violence as Opium Falls: UN Drug Report 2024. — Matn: elektron // Insight crime: [сайт]. — URL: <https://insightcrime.org/news/cocaine-surge-fuels-violence-opium-falls-un-drug-report-2024>.

chiqish ilmiy tadqiqotning dolzarb ekanligini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”, 2018-yil 18-oktyabrdagi O‘RQ-502-son “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida” (yangi tahrirda) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PF-5414-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari va sohaga doir boshqa qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga hamda ularda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq ba’zi masalalar u yoki bu darajada o‘rganilgan. Mamlakatimizda kontrabanda jinoyatiga oid qonun normalari xususida M.X. Rustamboyev, Q.R. Abdurasulova, R.A. Zufarov, R. Kabulov, A.A. Otajonov, N.S. Salayev, M.Q. O‘razaliyev, O.E. Zokirova, Z.S. Zaripov, A.S. Yakubov, X.M. Abzalova, N.O. Hamidov, A.M. Zufarov, J.M. Ermashov¹ va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida yoritib o‘tgan.

Jumladan, A.M. Zufarov o‘z tadqiqot ishida kontrabanda jinoyatini sodir etish natijasida yuzaga keladigan jinoyat-huquqiy munosabatlarni o‘rgangan bo‘lsa, biz o‘z tadqiqotimizda mazkur jinoyatni nafaqat jinoyat-huquqiy, balki kriminologik jihatdan ham yoritib berdik. Shuningdek, J.M. Ermashov tomonidan bojxona sohasidagi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari tahlil qilingan bo‘lsa-da, u kontrabanda jinoyatini alohida tadqiq etmagan, balki Jinoyat kodeksining bojxona sohasiga oid barcha moddalarini kompleks tarzda o‘rganishga e’tibor qaratgan. Biz esa o‘z tadqiqotimizda aynan kontrabanda jinoyatining jinoyat-huquqiy hamda kriminologik jihatlarni alohida ko‘rib chiqdik.

Shuningdek, MDHga a’zo davlatlarda A.I. Boyko B.V. Voljenkina, B.N. Gabrivaidze, Yu.P. Garmayeva, L.D. Gauxmana, A.S. Gorelika, S.V. Dushkina, S.V. Izosimova, G.A. Korchagina, I.A. Klepitskogo, Yu. Krasikova, S.V. Maksimova, V.I. Mixaylova, L.Yu. Rodinoy, V. Soboleva, Yu.I. Suchkova, I.V. Shmarova, V.P. Verin, D.V. Kozemaslov, A.P. Kuznetsov, P.N. Smolyakov, L.F. Rogatix, M.A. Kochubey, A.A. Sergeeva, Sh.N. Saidov, Ye.O. Phillipova T.I. Yermekbayeva, B.U. Seytxojin, B.N. Djumabekova, F.K. Ibroximov va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida tahlil qilingan.

Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan F. Coman, S. Maimescu, A.V. Nosach va O.A. Pasat, kontrabanda va bojxona qonunchiligiga oid jinoyatlarni jinoyat-huquqiy va kriminologik nuqtai nazardan tahlil qilib, mazkur muammoning turli

¹ Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

mamlakatlardagi xususiyatlarini ochib berganlar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi kontrabanda jinoyatining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etish, amaldagi qonunchilikdagi mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda uni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar, qonunchilikka takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

kontrabanda jinoyati tushunchasi, ijtimoiy xavfliligi va huquqiy mohiyatini ochib berish;

kontrabanda uchun javobgarlik normalarining rivojlanish bosqichlarini retrospektiv tahlil qilish;

kontrabanda jinoyatini tasniflash va uning jinoyat-huquqiy ahamiyatini yoritish;

kontrabanda jinoyatining obyektiv va subyektiv belgilarining yuridik jihatdan tahlil qilish;

kontrabanda jinoyatini kvalifikatsiyalash masalalarini ko'rib chiqish hamda uni boshqa jinoyatlardan farqlash mezonlarini aniqlash;

kontrabanda uchun javobgarlikni takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqish;

kontrabanda jinoyatining kelib chiqish sabablari va jinoyatchi shaxsning kriminologik tavsifini o'rganish;

kontrabanda jinoyatini oldini olish choralari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kontrabanda jinoyati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat-huquqiy va kriminologik munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini kontrabanda jinoyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, sud-tergov amaliyotiga doir hujjatlar, kriminologik tadqiqotlar bo'yicha materiallar, qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli tahlil, umumlashtirish, statistik usullar, shuningdek sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jinoyat ishlari va sud hukmlarini tahliliy o'rganish usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

so'nggi yillarda uchuvchisiz uchadigan apparatlarning noqonuniy olib kirilishi xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotganligi va ularning noqonuniy foydalanilishining oldini olish zarurati tufayli, mazkur apparatlarni olib kirganlik uchun birinchi marotaba ma'muriy, keyin esa jinoyiy javobgarlik belgilanishi lozimligi asoslantirilgan;

amaliyotda o'qotar qurol qismlarining noqonuniy muomalasi keng tarqalayotgani va ular xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirayotganligi sababli, ushbu

qismlarni kontrabanda jinoyatining predmeti sifatida qonunchilikda mustahkamlash zarurligi asoslantirilgan;

davlat suvereniteti va hududiy daxlsizlikni ta'minlash zarurati, shuningdek, amaldagi qonunchilikda uchrayotgan noaniqliklarni bartaraf etish ehtiyoji sababli, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi O'zbekiston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikni, suvni, yer qa'rini va samoviy hududni) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat ekanligi tushunchasi asoslantirilgan;

mulk huquqi va fiskal manfaatlar muvozanatini ta'minlash nuqtayi nazaridan va huquqni qo'llash amaliyotida adolatni ta'minlash sababli, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tovar-moddiy boyliklar davlat egaligiga o'tkaziladi. Agar tovar-moddiy boyliklar uchun bojxona to'lovi amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu to'lovlarni qaytarish masalasi hal qilinishi lozim ekanligi asoslantirilgan;

sud amaliyotida bojxona qonunchiligini buzish va kontrabanda ishlarini ko'rishda sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda dalillarni baholash jarayonida qonunchilik talablariga rioya etilmasligi hollari uchrayotganligi, sudlar faoliyatida profilaktik va tartibga soluvchi mexanizmlarni kuchaytirish zarurati sababli, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlarni ko'rishda sudlar bunday jinoyatlar sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlashlari, shuningdek ashyoviy dalillarni olish, hisobga qo'yish, baholashda qonunchilikka rioya etilganligini sinchiklab tekshirishi va protsessual qonunchilik normalari buzilishi aniqlangan hollarda xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan munosabat bildirishlari zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gazli, pnevmatik, signal beruvchi qurolni, prekursorlarni va olib chiqilishi taqiqlangan madaniy boyliklar (qimmatliklar)ni JKning 246-moddasi birinchi qism dispozitsiyasiga kontrabanda predmeti sifatida kiritish zarurati asoslangan;

kontrabanda jinoyatining subyektiv belgilariga oid keltirilgan fikrlar hamda kontrabandaning uyushgan guruh shaklida sodir etilishining ijtimoiy xavfi alohida yondashuv talab etilishiga asoslangan holda JK 246-moddasi tegishli qismiga og'irlashtiruvchi holatlarni kiritish zarurati asoslangan;

JKning 246-moddasiga oltinchi qism sifatida quyidagi rag'batlantiruvchi normani kiritish zarurati asoslangan:

“Basharti, ushbu moddada ko'rsatilgan jinoyat ishtirokchilikda sodir etilishi rejalashtirilgan bo'lib, ishtirokchilardan biri yoki bir nechtasi o'z qilmishi to'g'risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilib, jinoyatni ochishga faol yordam bergan va buning natijasida jinoyatning oldi olingan bo'lsa, javobgarlik yoki jazodan ozod qilinadi”;

JKga “O'simliklar, qo'ziqorinlar va hayvonotlar dunyosi obyektlarining kontrabandasi” deb nomlangan yangi 202²-moddasini kiritish zarurati asoslangan;

Bojxona kodeksining 188-moddasi (Bojxona nazoratining shakllari) birinchi qismi “raqamli (masofaviy) bojxona kuzatuv” degan mazmundagi o'ninchi xatboshi bilan to'ldirilishi hamda amaldagi o'ninchi, o'n birinchi va o'n ikkinchi xatboshilar tegishincha o'n birinchi, o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilar deb belgilanishi lozimligi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga “Raqamli (masofaviy) bojxona

kuzatuv” deb nomlangan 198¹-moddasini kiritish zarurati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlarning qonunni qo‘llash tajribasi asosida o‘rganilgan, ijtimoiy tadqiqotlar, anketa so‘rovi (200 dan ortiq sud-tergov amaliyoti xodimlaridan va ushbu soha ilmiy xodimlaridan) o‘tkazilgan, statistik ma‘lumotlar va 150 ga yaqin jinoyat ishlari bo‘yicha sud hukmlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar “Jinoyat huquqi” va “Kriminologiya” fanlari nazariyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar natijasida olingan xulosalardan kelajakda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, oliy o‘quv yurtlarida jinoyat huquqi va kriminologiya fanlaridan dars o‘tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyati, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish jarayoni hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga hamda oliy yuridik ta‘lim muassasalarida jinoyat-huquqiy fanlarni o‘qitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kontrabanda uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga doir masalalarni tadqiq etishning ilmiy natijalari asosida:

uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish uchun avval ma‘muriy keyin esa jinoyiy javobgarlik belgilash yuzasidan berilgan takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 244⁴-moddasini takomillashtirishda ya‘ni, O‘zbekiston Respublikasining “Ayrim toifadagi jinoiy qilmishlar uchun javobgarlik liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2024-yil 15-martdagi O‘RQ-921-son Qonunining 1-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 9-iyuldagi 3/dn-145-son dalolatnomasi). Ushbu taklif, jazolashning mutanosibligi, bosqichma-bosqichligini va jinoyat siyosatini liberallashtirish tamoyilini ta‘minlashga xizmat qilgan;

“qurol yoki o‘q-dorilarni” degan so‘zlar “qurolni, o‘q-dorilarni yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlarini” degan so‘zlar bilan almashtirish bo‘yicha takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 246-modda birinchi qismi dispozitsiyini takomillashtirishda ya‘ni, O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-son Qonunining 2-moddasi 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 9-iyuldagi 3/dn-145-son dalolatnomasi). Bu taklifning joriy etilishi kontrabanda jinoyatlarini aniqlashtirish

va unga qarshi kurashishni kuchaytirish maqsadida o'qotar qurolning asosiy qismlarini ham kontrabanda predmetlari qatoriga kiritishga xizmat qilgan;

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikni, suvni, yer qa‘rini va samoviy hududni) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat”ligi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 13-sentabrdagi O‘RQ–868-son O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2025-yil 8-yanvardagi 04\10-10-02-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi mamlakatimizda davlat chegarasi va bojxona chegarasi tushunchalari bilan bog‘liq noaniqliklarni bartaraf qilishga xizmat qilgan;

bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tovar-moddiy boyliklar davlat egaligiga o‘tkaziladi. Agar tovar-moddiy boyliklar uchun bojxona to‘lovi amalga oshirilgan bo‘lsa, ushbu to‘lovlarni qaytarish masalasi hal qilinishi lozimligini anglatishi to‘g‘risidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda, jumladan mazkur qarorning 21-bandi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 13-yanvardagi 01-30-25-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi bojxona sohasiga oid jinoyat ishlarini ko‘rishda inson huquqlarini ta‘minlashga xizmat qilgan;

bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlarni ko‘rishda sudlar bunday jinoyatlar sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlashlari, shuningdek ashyoviy dalillarni olish, hisobga qo‘yish, baholashda qonunchilikka rioya etilganligini sinchiklab tekshirishi va protsessual qonunchilik normalari buzilishi aniqlangan hollarda xususiy ajrim chiqarish yo‘li bilan munosabat bildirishlari zarurligini anglatishi to‘g‘risidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda, jumladan mazkur qarorning 23-bandini tayyorlashda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 13-yanvardagi 01-30-25-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlashga va mazkur jinoyatlarning oldini olishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 11 ta maqola (3 ta xorijiy jurnallarda), 9 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 151 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirishi (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, uslublari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kontrabanda uchun javobgarlikning umumiy tavsifi”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda Kontrabandaga umumiy tavsif va uning ijtimoiy xavfligining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kontrabanda uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik evolyutsiyasi: tarixiy-huquqiy tahlil va kontrabanda jinoyati turlari haqida batafsil yoritilgan.

Dissertant “kontrabanda” tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishda nazariy-huquqiy tahlil qilgan. Bu borada olimlarning (D.V. Kozemaslov, A.P. Kuznetsov, Yu.I. Suchkov, S.A. Sirma, B.V. Voljenkin, A.I. Chuchayev, S.Yu. Ivanova, N.A. Lopashenko, V.Ye. Melnikova, Q.R. Abdurasulova, R.A. Zufarov, N.O.Hamidov, R.Kabulov, A.M. Zufarov, J.M. Ermashovlarning) fikr-mulohazalari o'rganilib, ularga nisbatan ilmiy munozaralarga kirishilgan. Kontrabanda tushunchasi va uning uchun jinoiy javobgarlikga doir qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy o'rganilgan holda “kontrabanda” tushunchasiga nisbatan mualliflik ta'rifini keltirib o'tgan. Mazkur ta'riflarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan takliflar yuzasidan ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazilgan. Xususan, bojxona chegarasi va davlat chegarasi tushunchalari o'rtasida farq mavjud yoki yo'qligi haqida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 70 foizi bu ikki tushuncha o'zaro farqlanishini ta'kidlagan.

Shuningdek, kontrabanda jinoyatining ijtimoiy xavfini tahlil qilishga bag'ishlangan adabiyotlarda bu masalada tadqiqot yuritgan olimlarning fikrlari yoritilgan. Ilmiy manbalarda asosan, kontrabandaning ijtimoiy xavfi - davlatning tashqi savdo monopoliyasiga juda katta zarar yetkazishi mumkinligi haqida aytiladi. Ayrim tadqiqotlarda keltirilishicha, kontrabanda xavfi asosan xalqaro uyushgan jinoyatchilik bilan belgilanadi va qoida tariqasida giyohvandlik vositalari, psixotrop, zaharli moddalar, qurol-yarog', o'q-dorilar, portlovchi moddalar va boshqalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liqdir. Kontrabandaning ijtimoiy xavfliligining o'ziga xos xususiyatlarining eng to'liq tavsifi o'z vaqtida S.V. Dyakov, A.A. Ignatiyev va M.P. Karpushin tomonidan taklif qilingan bo'lib, ular ushbu tajovuzning zararli xususiyatlari, uning jamiyat uchun ortib borayotgan xavfini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, yana bir qator huquqshunos olimlar mazkur jinoyatning zararli xususiyatlarining har biri uning ijtimoiy xavfining o'ziga xos xususiyatlaridan birini tavsiflashini amaliy misollar bilan tushuntirib o'tgan.

Kontrabandaning ijtimoiy xavfliligining iqtisodiy jihati aniq tavsiflangan davlat byudjetining daromad qismini kamaytirishda ko‘rinishi ta’kidlab o‘tilgan. Qurol-yarog‘, o‘q-dorilar, turli xil portlovchi moddalar va portlovchi moslamalar kontrabandasi jinoyat qonunchiligini himoya qilishning mustaqil obyekti sifatida jamoat xavfsizligiga tahdid soladi. Kriminologik nuqtayi nazardan, bunday qurol va portlovchi moddalarning kontrabandasi, boshqa og‘ir jinoyatlarni sodir etishda faol kriminogen omilni paydo qiladi. Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi xususiyatlarini aniqlash nuqtayi nazaridan giyohvand moddalar kontrabandasi alohida e‘tiborga loyiqdir. Mazkur jinoyat nafaqat jamiyat uchun katta xavf tug‘diradi, balki har qanday davlatning eng muhim ijtimoiy qadriyatlaridan biri — inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu bilan birga, u noqonuniy giyohvand moddalar bozorining kengayishiga, ushbu moddalar sonining ortishiga, ularning tarqalishi va iste‘mol qilinishiga bevosita hissa qo‘shadi. Vaholanki, giyohvand moddalar savdosi jinoyatchilar uchun eng yuqori darajadagi noqonuniy foyda keltiruvchi sohalaridan biridir.

Ilmiy ishning mazkur bobida kontrabanda jinoyatining tarixiy rivojlanishi va huquqiy asoslari tahlil qilingan va ularning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Kontrabandaning kelib chiqishi – kontrabanda qadimgi davrlardan ma’lum bo‘lib, bojxona soliqlari joriy etilganidan keyin jinoyat tus ola boshlagan.

Sovet davrida kontrabanda qonunchiligi – RSFSR va SSSR qonunchiligi doirasida kontrabanda jinoyati dastlab qanday tartibga solingani va unga qarshi kurash choralari batafsil yoritilgan. Jumladan, 1917-yildan boshlab qabul qilingan normativ hujjatlar tahlil qilingan.

O‘zbekiston SSR va mustaqil O‘zbekiston qonunchiligi – 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi va 1994-yilda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan Jinoyat kodeksida kontrabanda uchun javobgarlik belgilanishi tahlil qilingan.

Kontrabanda jinoyatini rivojlanish jarayoni va takomillashtirish bo‘yicha takliflar – bojxona nazorati, jinoyat tarkibi va javobgarlik choralari takomillashtirilgani hamda zamonaviy huquqiy o‘zgarishlar tavsiflangan.

Shakli jihatidan o‘zgarishlarga uchragan lekin mazmuni jihatdan o‘zgarmagan bu jinoyatning tarixiy rivojlanish davrlaridagi turlariga to‘xtalib o‘tsak.

1. Yaqin Sharq tajribasiga asoslanib, kontrabanda jinoyatining shakllarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) tigarat al-shanta; 2) kontrabandaning ikkinchi toifasi tahrib/tigara bil-leyl bo‘lib, tungi kontrabanda/tungi savdoni bildiradi; 3) kontrabandaning uchinchi shakli tahrib bahri (dengiz orqali olib o‘tish).

2. Kontrabanda predmetlarining tipologiyasiga asos uni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) predmetlarning kontrabandasi:

– qonuniy tovarlar kontrabandasi: bu hisobotda mavjud kontrabandaning eng keng tarqalgan shakllari;

– chelnoch savdosi (Shuttle Trade): Chelnoch savdosi tovarlarni arzonroq yoki arzonroq narxda sotib olish va ularni nisbatan yuqori narxda mahalliy bozorda sotish uchun chegaradan o‘tgan savdoni anglatadi;

– noqonuniy tovarlar savdosi ya’ni, giyohvand moddalar, qurol, yovvoyi tabiat va madaniy boyliklar savdosi;

- b) odam kontrabandasi;
- c) axborot kontrabandasi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kontrabanda jinoyati tarkibining yuridik tahlili va javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilikni takomillashtirish”** deb nomlanib, unda kontrabanda jinoyati tarkibiy qismlarining yuridik talqini, kontrabanda jinoyati kvalifikatsiyasi va uni o‘xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash muammolari, kontrabanda uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Mazkur bobning birinchi paragrafida huquqshunos olimlar (B.V. Voljenkin, V.I. Mixaylov, A.V. Fedorov, N.A. Lopashenko, A.V. Naumov, G.A. Rusanov, I.M. Galperin, Yu.V. Gracheva, A.I. Dolgova, V.N. Kudryavsev, N.F. Kuznetsova, A.N. Ignatovlar)ning fikr-mulohazalari o‘rganilib, ularga nisbatan ilmiy munozaralarga kirishilgan holda kontrabanda jinoyatining obyekti, shuningdek mazkur jinoyatning tarkibi bo‘yicha bir qator tahlillar amalga oshirilgan.

Olimlar tomonidan ko‘rsatilgan kontrabanda obyekti haqidagi fikrlariga ko‘ra, ularni quyidagicha ajratish mumkin: 1. Davlatning iqtisodiy manfaatlari va xavfsizligi (A.I. Boyko, B.V. Voljenkin, S.V. Maksimov, V.I. Mixaylov); 2. Madaniy boyliklarni muhofaza qilish (L.Yu. Rodina, G.A. Korchagin); 3. Xalqaro va davlat huquq normalarini muhofaza qilish (Yu.P.Garmayeva, A.S.Gorelik); 4. Jamoat tartibi va salomatligini buzish (I.A. Klepitskiy, Yu.I. Suchkov); 5. Tashqi savdo va moliyaviy sohani himoya qilish (D.V. Kozemaslov, L.F. Rogatix); 6. Ijtimoiy tahdid va aholi xavfsizligi (Sh.N. Saidov, Ye.O. Filippova).

Demak, aksariyat olimlar kontrabandaning asosiy obyekti davlatning iqtisodiy xavfsizligi va tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tishning belgilangan tartibi degan fikrga to‘xtalib o‘tganlar. Biroq, kontrabanda predmetining o‘ziga xos xususiyatlariga (tovarlar, narkotiklar, qurollar, madaniy boyliklar) qarab, obyekt jamoat xavfsizligi, aholi salomatligi, madaniy meros yoki ekologik xavfsizlik kabi boshqa ijtimoiy munosabatlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Tadqiqotchilar J.M. Ermashov va A.M. Zufarov kontrabanda jinoyatining bevosita asosiy obyekti masalasiga turlicha, biroq mazmunan bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlarni ilgari surgan.

J.M. Ermashovning fikricha, kontrabanda jinoyatining bevosita asosiy obyekti — erkin fuqarolik muomalasidan chiqarilgan yoki erkin muomalada bo‘lishi cheklangan tovarlar va boshqa predmetlarni bojxona chegarasidan o‘tkazish tartibi va shartlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlardir. Demakki, olimning yondashuvida e‘tibor asosan kengroq ijtimoiy munosabatlar tizimiga qaratilgan.

A.M. Zufarov esa asosiy bevosita obyekt sifatida muomalasi cheklangan yoki taqiqlangan modda, qurilma, vosita va materiallarni bojxona chegarasidan olib o‘tishning qonun bilan belgilangan tartibini alohida ta’kidlaydi. Uning ta’rifida urg‘u, avvalo, qonuniy tartibning buzilishiga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, har ikki olim kontrabanda jinoyatining bevosita obyektini muomalasi cheklangan yoki taqiqlangan predmetlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tish tartibiga oid ijtimoiy munosabatlar sifatida talqin qiladi. Biroq J.M. Ermashov ushbu masalaga kengroq ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan yondashgan bo‘lsa, A.M. Zufarov qonuniy tartibning buzilishi elementiga aniqroq

urgʻu bergan.

Shu jihatlarni hisobga olgan holda, tadqiqotchining fikricha, kontrabandaning bevosita obyekt — jinoyat predmeti boʻlgan narsalarni bojxona chegarasidan olib oʻtishning qonun bilan belgilangan tartibi, shuningdek, jamoat xavfsizligi, aholi salomatligi hamda insoniyat tinchligi va xavfsizligidir.

Dissertant jinoyatning obyektiv tomoni xususida toʻxtalib, jinoyatning obyektiv tomoni ijtimoiy-xavfli qilmishning tashqi tomoni boʻlib, jinoyatning qanday sodir etilishini koʻrsatishini inobatga olgan va ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni bir jinoyatning ikkinchisidan ajratish imkonini berishini yana bir taʼkidlab oʻtgan. Bu masalada M. Rustamboev, R. Kabulov, R. Zufarov, M. Qodirov, E. Muxammadaliyev, A. Zufarovlarning fikrlariga eʼtibor qaratgan.

Tadqiqot ishi yuzasidan kontrabandaning obyektiv tomonidan formal tarkibli jinoyat ekanligi qayd etilganligi sababli jinoyat huquqi nazariyasiga koʻra formal tarkibli jinoyatlarda egri qasd istisno etilib, ular faqatgina toʻgʻri qasddan, yaʼni oʻz qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga koʻzi yetgan va ularning yuz berishini istagani tarzda sodir etilishini anglash mumkin. Zero, davlat chegarasidan fuqarolik muomalasi taʼqiqlangan yoki cheklangan ashyolarni olib oʻtayotgan shaxs oʻz qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagani holda kontrabandaning ijtimoiy xavfli oqibatlariga koʻzi yetib, sodir etadi. Kontrabandaning ham jinoyat huquqi nazariyasiga koʻra barcha jinoyatlarga xos boʻlgan motiv va maqsaddan iborat boʻlishi mumkin. Biroq, ayb subyektiv tomon zaruriy belgisi, motiv va maqsad esa – fakultativ belgisi sanaladi.

Kontrabanda jinoyatining subyektiv belgilariga oid keltirilgan fikrlar hamda kontrabandaning uyushgan guruh shaklida sodir etilishining ijtimoiy xavfi alohida yondashuv talab etilishiga asoslangan holda tadqiqot ishi yuzasidan quyidagi takliflarni keltirib oʻtish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, JKning 246-moddasi ikkinchi qismiga mazkur moddaning birinchi qismida keltirilgan harakatlarning vakolatli davlat organi xodimi tomonidan oʻz xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etgan kontrabanda jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortish normasi kiritilishi maqsadga muvofiq; ikkinchidan, JKning 246-moddasi ikkinchi qismiga mazkur moddaning birinchi qismida keltirilgan harakatlarning takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etganlik holatida kontrabanda jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortish normasi kiritilishi maqsadga muvofiq; uchinchidan, kontrabanda jinoyatining transmilliy jinoyat ekanligi sababli koʻp hollarda uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilishini inobatga olib, JKning 246-moddasining 2-qismiga JK 246-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan harakatlar uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi lozim.

JKning 17-moddasiga asosan JKning 246-moddasida belgilangan kontrabanda jinoyati subyekti 16 yoshga toʻlgan aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi boʻyicha esa kontrabanda hamda bojxona toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyat-huquqiy normalari bilan shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishlarning kvalifikatsiya qilinishida normalar raqobatini, yaʼni shaxs tomonidan sodir etilgan jinoiy qilmishning belgilari bir vaqtning oʻzida JK Maxsus qismi turli normalari tarkibiy elementlarini oʻz ichiga olganlik xususiyatlarini yuzaga keltirganligi sababli mazkur tadqiqot ishi

yuzasidan mazkur jinoyatlarni qiyoslash orqali tadqiq etish nazarda tutilgan. Zero, JKning 182-moddasida belgilangan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hamda kontrabanda jinoyatining bojxona hududida sodir etilishi, jinoiy qilmishning davlat bojxona hududini noqonuniy kesib o'tilishi bilan tamom bo'lishi hamda xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar natijasida ham vujudga kelishi mumkinligi kabi umumiy jihatlari sababli normalar raqobatini vujudga keltiradi. Shu sababli ham, avvalo mazkur jinoyatlarning zaruriy va yetarli elementlarini tashkil etuvchi jinoyatning tarkibiy elementlari: obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil etilgan.

Xususan, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining tarkibini to'liq tahlil qilish orqali bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hamda kontrabanda jinoyatlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlash hamda mazkur jinoyatlarning o'xshash va farqli jihatlarning tahlili asosida kontrabanda jinoyatiga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan asosli takliflar ishlab chiqilgan.

Kontrabanda uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalari yuzasidan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda jinoyat sodir etish mazkur jinoyatning ikkinchi va to'rtinchi qismida alohida qayd etish taklifi ilgari surilgan. Shuningdek quyidagi rag'batlantiruvchi normani qo'shish taklifi ham asoslab berilgan.

“Basharti, ushbu moddada ko'rsatilgan jinoyat ishtirokchilikda sodir etilishi rejalashtirilgan bo'lib, ishtirokchilardan biri yoki bir nechtasi o'z qilmishi to'g'risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilib, jinoyatni ochishga faol yordam bergan va buning natijasida jinoyatning oldi olingan bo'lsa, javobgarlik yoki jazodan ozod qilinadi”.

Mazkur taklif yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 57,5 foizi uni qo'llab-quvvatlagan, 21,7 foizi esa amaliyotda sinov tariqasida joriy etish zarurligini bildirgan, 20,8 foizi esa ushbu taklifga qarshi ekanini ta'kidlagan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Kontrabanda jinoyatining kriminologik jihatlari”**ga bag'ishlangan. Unda kontrabanda jinoyatining kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari, kontrabanda jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsning kriminologik tavsifi shuningdek, kontrabanda jinoyatini oldini olish masalalari tahlil qilingan.

Jinoyatchilikning sabablari masalasi kriminologik tadqiqotlarda markaziy bo'g'in hisoblanadi, chunki uni hal qilishga yondashish ushbu salbiy ijtimoiy hodisaga qarshi kurashni tashkil etishga bog'liq. Kriminologlar odatda o'rganilayotgan jinoyatlar bilan bog'liq ayrim hodisalarni anglash bosqichi va ularga qarshi kurashni tashkil etish bosqichi o'rtasida ushbu jinoyatlarning determinatsiyasi va sabablarini aniqlash bosqichi majburiy ekanligini tan olishadi. Bu albatta, kontrabanda jinoyatiga ham tegishli. Kontrabanda jinoyatiga qarshi kurashni tashkil qilishda, birinchi navbatda ularni paydo qiladigan, sharoit yaratadigan va rivojlantiradigan narsalarga ta'sir qilish kerakligi tadqiqot ishida ko'rsatilib o'tilgan.

Tadqiqotchi tomonidan O. Zokirovaning kontrabanda jinoyatini keltirib chiqaruvchi omillarni quyidagi guruhlariga ajratganligi ta'kidlab o'tiladi: birinchidan, jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari va uning axloqiy-psixologik holati bilan bog'liq omillar; ikkinchidan, jinoyat sodir etilishi natijasida noqonuniy yo'l bilan katta miqdordagi daromad olish imkoniyatining mavjudligi;

uchinchidan, jamiyat a'zolarining iqtisodiy ta'minlanish darajasining pastligi; to'rtinchidan, qo'shni mamlakatlarda yuz berayotgan mintaqaviy mojarolar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi. Mazkur sabablar qo'shimcha sifatida tadqiqotchi quyidagi omillarni ham ko'rsatib o'tgan:

shaxslarning kontrabanda jinoyati predmeti bo'lgan narsalarni bilmasligi, ya'ni huquqiy savodxonligining pastligi;

huquqni muhofaza qiluvchi va bojxona nazoratini amalga oshiruvchi organlardagi korrupsion holatlarning bor ekanligi;

ayrim bojxona to'lovlarining miqdori kattaligi va uning natijasida noqonuniy yo'llar bilan ularni olib o'tishga urinishlar bo'layotganligi.

Tadqiqotchi xulosasiga ko'ra, kontrabanda jinoyatining sodir bo'lishiga bir qator asosiy sabablar va sharoitlar ta'sir qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: bojxona tekshiruvining sust olib borilishi, texnologik vositalarning cheklangan samaradorligi, qo'shni davlatlarning bojxona xizmatlarining to'g'ri tashkil etilmaganligi, davlat chegarasining to'liq himoyalanganligi, mamlakatdagi jinoyatchilik va korrupsiya darajasi hamda aholining ijtimoiy himoyalanganligi darajasining pastligi.

Shu sababli birinchi navbatda mavjud sharoitlarni yaxshilash, keyinchalik esa jinoyatning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish zarur. Faqat shunday yondashuv orqali kontrabanda jinoyatining oldini olish mumkin.

Tadqiqot davomida olib borilgan kriminologik tahlil kontrabanda jinoyatini sodir etgan shaxslarning ijtimoiy-demografik, psixologik va huquqiy xususiyatlarini chuqur ochib berishga xizmat qildi. Tahlillarga ko'ra, kontrabanda jinoyatchilari odatda mehnatga layoqatli yoshdagi (25–50 yosh), o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega, ko'pincha oilali va bir necha farzandli hamda iqtisodiy jihatdan qiyin vaziyatda qolgan fuqarolardir. Shuningdek, jinoyatchilar orasida ayollar soni nisbatan kamroq bo'lsa-da, ularning ulushi yildan-yilga ortib borayotgani kuzatilmogda.

Ushbu jinoyatlarni sodir etishdagi asosiy motivlar orasida iqtisodiy manfaatdorlik, ijtimoiy tengsizlik, huquqiy savodsizlik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining zaifligi yetakchi o'rin tutadi. Ayniqsa, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va diniy mazmundagi materiallarning noqonuniy aylanmasi kontrabanda jinoyatlarining eng ko'p uchraydigan turlarini tashkil etadi. Shuningdek, tahlil qilingan jinoyat ishlari materiallariga ko'ra, kontrabanda predmetlari sifatida aniqlangan giyohvandlik va psixotrop moddalar, o'q-dorilar hamda diniy materiallarning kelib chiqish geografiyasi turlicha bo'lib, bu jinoyatlarning transmilliy xarakterga ega ekanligini ko'rsatilib o'tilgan. Xususan, giyohvand moddalarining katta qismining Afg'oniston va Tojikiston hududlaridan noqonuniy yo'llar bilan olib kirilishi qayd etilgan. Psixotrop moddalar — xususan, tarkibida tapentadol va pregabalin mavjud dorilar — asosan Qirg'iziston hududidagi dorixonalardan qonunga xilof ravishda xarid qilinib, O'zbekiston hududiga yashirincha olib o'tilmoqda; ayrim hollarda bunday moddalar Qozog'istondan ham noqonuniy tarzda olib kiriladi. Shuningdek, patronlar (o'q-dorilar) esa asosan Isroil, Turkiya va Rossiya davlatlaridan noqonuniy ravishda olib kelingani ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning mazkur bobida kontrabanda jinoyatining oldini olishning bir qator yo'nalishlari va usullari keltirilgan: 1) ayrim sohadagi jinoyatchiliklar,

uning ichidagi korrupsion jinoyatlarga qarshi kurashish; 2) sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish va bojxona nazoratini takomillashtirish; 3) jazoning muqarrarligini jamiyat a'zolari ongida chuqurroq singdirish va qonun hujjatlarini qat'iy lashtirish; 4) qo'shni davlatlardagi notinch vaziyatni barqarorlashtirish shuningdek xalqaro hamkorlik davlatlar o'rtasida axborot almashish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar tuzish; 5) kontrabanda jinoyatlarining oldini olishda iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish; 6) ta'lim va profilaktika dasturlarini takomillashtirish.

Tadqiqot natijasida O'zbekiston Respublikasining ayrim hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, tadqiqot mavzusiga oid normativ-hujjatlarga takliflar ishlab chiqish orqali O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati asoslantirilgan.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya tadqiqot natijasida umumnazariy xulosalar, jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirishga qaratilgan hamda huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xulosalar uchta umumiy yo'nalishni qamrab olgan bo'lib, quyidagilardan iborat:

I. Jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar:

1. Kontrabanda tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

Kontrabanda, ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib *kontrabanda predmetini* O'zbekiston Respublikasining davlat yoki bojxona chegarasidan *olib o'tish* tushuniladi.

2. Kontrabanda predmeti tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

